

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish	335
<b>M.A.Kuchkarova</b>	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
<b>Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova</b>	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
<b>K.Sh.Nishonova</b>	
Boshlang'ich ta'limga integrativ ta'limga uning turlari	347
<b>A.R.Dilbarjonov</b>	
Zamonaviy ta'limga jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
<b>I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova</b>	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasini	354
<b>M.M.Abdumannopov</b>	
Ta'limga raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'limga olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
<b>T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova</b>	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
<b>N.A.Qodirova</b>	
Texnika oly o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida)	366
<b>Z.N.Ortiqova</b>	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
<b>M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'limga o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'mni	377
<b>I.Kirgizov</b>	
"Ey sabo" – komil insonga aksilogik yondashuv	381
<b>A.T.Karimov</b>	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
<b>A.M.Nurmuxammadjonov</b>	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati	390
<b>M.M.Najmetdinova</b>	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
<b>M.Kurbanova</b>	
Dutor cholg'usi ijrochiligidagi musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari	400
<b>X.M.Shermatova</b>	
Maktabgacha ta'limga tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
<b>T.N.Shokirov</b>	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
<b>B.M.Qurbanova</b>	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
<b>L.Sh.Shukurova</b>	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili	415
<b>A.A.A'zamjonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'mni	419
<b>A.A.Abdisattorov</b>	
Musiqqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
<b>I.D.Rustamov</b>	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'mni (Doira cholg'usi misolida)	428
<b>A.A.Ergashev</b>	
Vokal-xor ta'limga finale-2003 dasturining qo'llanishi	432
<b>A.A.Mamurov</b>	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



УО'К: 371.32:373

**OILADA BOLALARNI MILLIY QADRIYATLAR VA AN'ANALAR ASOSIDA  
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK OMILLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ  
НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И ТРАДИЦИЙ**

**PEDAGOGICAL FACTORS OF RAISING CHILDREN IN THE FAMILY BASED ON  
NATIONAL VALUES AND TRADITIONS**

Ortiqova Zulfiya Nurmahamatovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD)

**Annotatsiya**

Maqolada oilaviy turmush tarziga oid urf-odatlar, oilada bolalarni milliy muxitda tarbiyalashda milliy qadriyatlar, bolalarni ijtimoiy xayotga moslashtirishda bola tarbiyasiga doir masalalar, an'anavli xalq tarbiyasi xususiyatlari va u bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlar, milliy tarbiya usullari, oiladagi tarbiyaviy muhitning xususiyatlari, tarbiya jarayonida ota-onalarining turgan mavqeい va ta'sir darajasi kabi masalalar pedagoglarning nazarini pedagogik ko'rsatmaları berilgan. Alohiba oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalash bo'yicha yangi ilmiy yo'nalish va izlanishlar olib borilmogda.

Shu o'rinda, oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda ularga zarur bol'gan tizimni ilmiy-organish muhim ahamiyat kasb etadi. Shubhaisiz, oilalarda bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida boy tajriba yig'ilib, ilmiy-tadqiqot ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va ijobjiy ishlar o'z samarasini berib kelmoqda, bu borada bizning tadqiqot ishlari natijalari ham o'zining munosib hissasini qo'shishi tabiiyidir.

*Binobarin, oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalash masalalari borasida xoniju tajribalar mohiyati-bizni bu sohani o'rganishga da'vat etdi.*

**Аннотация**

В статье рассматриваются такие вопросы, как традиции семейного образа жизни, национальные ценности в воспитании детей в семье в национальной среде, вопросы воспитания детей в адаптации детей к социальной жизни, особенности традиционного народного воспитания и связанные с ним обычай и обряды, национальные методы воспитания, особенности воспитательной среды в семье, положение и уровень влияния родителей в процессе воспитания, вопросы теоретические педагогические указания педагогов даны. Ведутся новые научные направления и исследования по воспитанию взаимоотношений детей в отдельной семье на основе национальных ценностей и традиций. Здесь важное значение приобретает научное изучение системы, необходимой им в воспитании взаимоотношений детей в семье на основе национальных ценностей и традиций. Несомненно, в нашей стране накоплен богатый опыт подготовки детей к социальной реальности в семьях, хорошо налажена научно-исследовательская работа и плодотворная позитивная работа, и естественно, что результаты бизнес-исследований в этой области также вносят достойный вклад.

Следовательно, сущность зарубежного опыта по вопросам воспитания взаимоотношений детей в семье на основе национальных ценностей и традиций побудила бизнес изучить эту сферу

**Abstract**

The article provides theoretical pedagogical instructions of educators on such issues as family lifestyle customs, national values in the upbringing of children in the family in national mukhit, issues related to child education in the adaptation of children to social welfare, features of traditional folk education and related Customs and rituals, methods of National Education, features of the educational environment in the family. In a separate family, a new scientific direction and research is being carried out on the upbringing of the interaction of children on the basis of national values and traditions.

At this point, it is important to scientifically study the system necessary for children in the family in the upbringing of their relationship based on national values and traditions. Obviously, in families, rich experience in preparing children for social life has been accumulated in our country, R & D has been well established and positive work has been paying off, in this regard, it is natural that the results of our research work also make a worthy contribution.

Consequently, the essence of foreign experiences in the family on the issues of raising children's relationships on the basis of national values and traditions encouraged us to explore this area.

## PEDAGOGIKA

**Kalit so'zlar:** jahon, oila, urf-odatlar, milliy, an'anaviy, ijtimoiy, turmush, bola, tarbiya, madaniyat, ota-onpa, fan, marosim, faol, do'st, sadoqat, ma'naviyat, vazifa, sog'lom, muhit, olim.

**Ключевые слова:** мир, семья, традиции, национальный, традиционный, социальный, быт, ребенок, воспитание, культура, родитель, наука, обряд, деятель, друг, верность, духовность, миссия, здоровье, окружающая среда, ученый.

**Key words:** world, family, traditions, national, traditional, social, life, child, education, culture, parent, science, ceremony, active, friend, loyalty, spirituality, mission, healthy, environment, scientist.

## KIRISH

Jahonda tarixiy faktlarning dalolat berishicha, milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlardan xalq tomonidan qo'lga kiritilgan uzoq odad natijasi sifatida e'tirof etiladi. Oilada milliy muhit munosabatida voyaga yetib, milliy-ma'naviy qadriyatlar qurshovida o'sishi asosida shakllanadi va ijtimoiy hayotga moslashishini taqozo etadi. Ana shunday dolzarb muammolardan biri – bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan bola tarbiyasi usulidir. Pedagogikada shu vaqtga qadar bola tarbiyasi masalasi olimlar tomonidan, asosan, an'anaviy xalq tarbiyasi xususiyatlari va u bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlar kontekstida o'rganib kelingan. Milliy tarbiya usuli, oiladagi tarbiyaviy muhitning xususiyatlari, tarbiya jarayonida ota-onalarining tutgan mavqeyi va ta'sir darajasi kabi masalalar pedagoglarning nazardan chetda qolmagan. Ayniqsa, Germaniya, Yaponiya, Rossiyada bolalarning oila muhitida tarbiyalash va rivojlantirishning innovatsion tizimlari ishlab chiqilayotganligini alohida qayd etib o'tish lozim. Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ularni pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish, oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Dunyo miqyosida har bir shaxs yashab turgan muhit ta'sirida tarbiyalanadi va uning tarbiyaviy fazilatlari ham yashash muhiti bilan belgilanadi. Shuning diagnostik mexanizmlarini rivojlantirish, ularning milliylikni ta'minlashda mahalla, oila va maktab hamkorligini takomillashda integrallashgan modellarini ishlab chiqish, yuksak ma'naviy qadriyatarga ega insonlar kilib tarbiyalash va shu asosida shaxsni shakkantirish muhim axamiyat kasb etadi. Barcha mamlakatlarda ajdodlarning ma'naviy merosiga tayanib milliy xarakter xususiyatlarining rivojanishi, milliy xarakterda ibratga munosabat amaliy faoliyat va avlod tarbiyasida unga tayanish muxim o'rinn egallaydi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yetim va noto'liq, kam ta'minlangan oilalar bolalarining huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish, turmush sharoitlarini yaxshilash [7]" kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa, noto'liq oila bolalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLІ

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganlayotgan muammo yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va turli g'oya, qarashlar ilgari surilgan. Mazkur tadqiqotlarda masalaga doir turli nazariy-metodologik yondashuvlar qo'llanilgan.

Xorijda muammoning oilaviy turmush tarziga oid urf-odat va marosimlar negizida o'rganilishi XIX asrga kelib, G'arb dunyosi ijtimoiy fanlarida turli xalqlar milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qiluvchi madaniy antropologiya va psixologiya, sotsiologiya yo'nalishlari maxsus fanlarga aylandi. Bu fanlar "boshqa" madaniyatga mansub xalqlarni o'rgana boshladi. Dastlabki tarixiy-etnografik tadqiqotlarda mavzu o'rganayotgan xalqning xulq-atvor normalari va oila xususiyatlarini o'rganish orqali tavsiflab ketilgan xolos va bunda qandaydir mustaqil nazariy muammolar qo'yilmagan [3]. Bunday ishlar sirasiga N. N. Mikluso-Maklayning Admirallik orollarida Bronislav Malinovskiyning Tinch okeani g'arbiy qismidagi orollarida [5] olib borgan tadqiqotlarini ham ko'rsatish mumkin. Masalan, N. N. Mikluso-Maklay onanining emizikli bolasini qanday tebratib uxlatishi, mahalliy aholi ayb ish qilgan bolalarni qanday tarzda jazolashi va shu kabi ma'lumotlarni beradi. Ushbu tadqiqotlarda bolalik davriga oid qandaydir mustaqil nazariy muammolar qo'yilmagan. Shunga qaramay, bunday ishlar katta ilmiy ahamiyatga ega.

Salmoqli tarixshunoslik asosida va erkin esseistik uslubda yozilgan Filipp Aresning ushbu kitobida uch yo'nalishdagi masalalar ko'tarilgan:

1. Bolalik tushunchasi va bolalik obrazlari evolyusiyasi – hayot yo'li, bolalikni alohida ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida anglash tarixini, bolalar kiyimlari, o'yinlari, ma'naviy tarbiyaning maqsad va metodlari evolyusiyasini davrlashtirish;

2. Maktab hayoti tarixi – o'quvchilarning yoshlari, ta'lim dargohlari tiplaridagi o'zgarishlar, o'quvchilarni intizomga o'rgatish maqsad va metodlaridagi o'zgarishlar va hok;

3. Bolalarning "eski" va "zamonaviy" oilalardagi o'rni va funksiyalari.

Aresning g'oyasiga ko'ra, jamiyatning bolalarni qanday qabul qilishi va qay tarzda tarbiyalashi – bu butun bir madaniyatning asosiy tavsifno-masidir. Bunday ustanovkalarning o'zgarishi boshqa chuqur makrosotsial (masalan, oilaning strukturasi va funksiyasi bo'yicha) o'zgarishlarga olib kelishi mumkin [1, 121].

Fransiyalik afrikashunos, tarbiya etnologiyasi bo'yicha mutaxassis P. Ernining "Qora Afrikada bola va uning muhiti. An'anaviy tarbiya haqida ocherk" kitobi ham diqqatga sazovor. Muallif ushbu asarda ko'plab maxsus adabiyotlar va o'zining kuzatuvlari tayangan holda, an'anaviy afrika institatlari tizimida bolaning o'rni va tarbiyasining umumiy holatini ko'rsatishga harakat qildi. U tadqiqotini "marosimiy" pedagogikaning mohiyati va uning zamonaviy pedagogikadan farqini qisqacha tahlil qilishdan boshlaydi, so'ngra alohida afrikacha "bolalik madaniyati" mavjudligi masalasini muhokama qiladi. Shu o'rinda an'anaviy tarbiyaning zamonaviy jarayonlarga mos evolyusiyasiga alohida e'tibor qaratadi [6].

A. Shlegel va G. Barrilar etnologiya sohasida ushbu mavzu bo'yicha madaniyatlararo keng ko'lamli tadqiqotlar olib borganlar. Lekin, ular faqatgina turli jamiyatlarda initsiatsiya masalasini o'rganish bilan cheklanganlar [15].

"Avesto"da bolalarning sog'lom, bardam o'sishida atrof muhitning pokizaligi, jamoat joylari va er-xotin hamda bolalarning shaxsiy gigienasi maxsus qayd qilingan. Serfarzandlik rag'batlantirilgan. Zardusht Axuramazzadan "Serfarzand xonadonga nima berasan" deb so'raganda, u: "Bunday odamlarni o'z himoyamga olaman, hayotini farovon, rizqini mo'l qilaman" – deb javob beradi. Katta oilalar jamoa oqsoqoli tomonidan himoya qilinib, egizak tug'ilgan oilalarga bir juftdan sog'in sigir yoki sariq tuyu hadya qilingan, davlat xazinasidan doimiy nafaqa belgilangan [2].

Forobiyning ta'kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin. Tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni – bilimli bo'lishga, to'g'rilik va haqiqatni sevishga, jasur do'stlarga sadoqati bo'lish singari fazilatlarni egallashga intilmog'i lozim. U insonning ma'nnaviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aqli-ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomonidan ham, axloqiy tomonidan ham yetuk, mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi – jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. "Ideal shahar aholi ilmining fikrlari" hamda "Baxt-saodatga erishuv haqida" nomli risolalarida olimning bu fikrlari aniq ifodalangan [14].

Ibn Sino oilaviy munosabatlар maromi oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g'ururi va sha'ni ko'p jihatdan ayollarga ham bog'liq ekanligi haqida ko'p yozgan. Jumladan, "Oila xo'jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo'limqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlari haqida" nomli bo'limida ularning quyidagi fazilatlari bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatl bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim; u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak; injiq bo'lmasligi, o'z iffat va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorilik, vigor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'ren goldirmasligi kerak.

Sharq mutafakkirlarining ma'nnaviy merosidan bunday misollarni cheksiz davom ettirish mumkin. Ko'rinish turibdiki, oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlар ta'siri masalasiga Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyorilari alohida e'tibor bilan qaraganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, oila muqaddasligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib o'tilgan.

Oilada bolalarni o'zaro munosabatlarga tayyorlash muammolariga doir xorijiy olimlar Dj.Boulbi, K.Broun, U.Goldfarb, Ye.Donaldson, R.Djonson, S.Nelson, R.Karter, shuningdek Fransiyada A.Villi, E.Dyurkgeym, P.Jane, Germaniyada T.Shrayber, AQShda K.Byuler, V.Metyuza, Dj.Bruner, S.Xoll, U.Djeyms, D.Cheyni, Shveysariyada E.Klapared ilmiy izlanishlarida oilada bolalarda yuzaga keladigan emotsiyonal, xulq-atvor va intellektual muammolar, bolalar uylarini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik, sotsiologik, falsafiy jihatlarini yoritib berganlar. Biroq, oilada

## PEDAGOGIKA

bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlari tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi bo'yicha maxsus tadqiqot ishlari olib borilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oila barqarorligini belgilovchi shaxslararo munosabatlar ta'siriga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi oilaviy turmush va uning barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi [4].

L. A. Frishteynning "Janubiy xorazmlik o'zbeklarning bola tug'ilishi bilan bog'liq urf-odatlari va qarashlari" [13]nomli maqolasida ham o'zbeklar misolida mazkur masala o'rganiladi. Har ikki maqolada ham o'zbeklarning bola tug'ilishi va tarbiyasiga doir an'anaviy urf-odat va marosimlari ko'proq oilaviy marosimlar kontekstida tadqiq etilgan.

Bundan tashqari, T. X. Toshboyeva va M. D. Savurovlar o'zlarining qishloqdagi o'zbek oilasi turmushidagi an'anaviy va zamonaviy urf-odatlami o'rganishga bag'ishlangan asarining [12] alohida bobini o'zbeklarning bola tarbiyasini bilan bog'liq an'anaviy va zamonaviy udumlarini yoritishga bag'ishlaganlar.

S.P. Polyakovning "Zamonaviy O'rta Osiyo jamiyatida traditsionalizm" asarida ham oilaviy munosabatlar va bola tarbiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, muallif demografik holat, oila, an'anaviy bola tarbiyasini yoritganda o'zbeklarga tegishli ma'lumotlarga ham to'xtalib o'tadi. U o'zbek oilalarida o'g'il va qiz bola tarbiyasidagi farqli xususiyatlar va ularga bo'lgan munosabatlarning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib o'tar ekan, barcha o'rta osiyolik xalqlarda, shu jumladan, o'zbeklarda ham bolalarga beriladigan mehnat tarbiyasining salbiy tomonlariga o'z e'tiborini qaratadi va bu holatni "bolalar mehnatini eksplutatsiya qilish" darajasiga yetishini ta'kidlab o'tadi [8]. Shuni aytilib o'tish lozimki tadqiqotchilar o'zbek oиласining ijtimoiy va demografik tomonlarini o'rganishga e'tibor qaratgan bo'lsalar, xalq pedagogikasi ruknida o'rganilgan ishlar sifatida X. Toshtemirov va Z. Mirtursunovning o'zbek xalq tarbiyasini an'ani sifatida folkloarning o'mini ko'rsatish bilan birga xalq tarbiyasining boshqa metodlarini ham tadqiq etadi.

Yosh avlod tarbiyasi shunday muhim mavzuki, deyarli barcha ijtimoiy soha mutaxassisllari tomonidan ushbu mavzu o'rganiladi. Shu jumladan, o'zbek faylasuflaridan M. Sangilovning ishlarida oilada bola tarbiyasini masalasining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liqligi falsafiy jihatdan o'rganilgan [10].

O'zbekistonda milliy tarbiya tizimini rivojlantirish, maktablarda o'zbekona milliy tarbiyanı amalda joriy qilish usul va metodlarini ilk bora pedagogik jihatdan ishlab chiqqan olim M. Quronovdir [11].

U an'anaviy tarbiyadagi ilg'or usullardan hamda zamonaviy pedagogikadagi o'zbek xalqi ruhiyatiga mos keluvchi jihatlardan foydalangan holda milliy tarbiya tizimini yaratish va shu orgali taraqqiyotga intiluvchi, barkamol o'zbekni tarbiyalash masalasini o'rta tashlaydi. O'zbekistonda ijtimoiy tarbiya, shaxsning ijtimoiylashuvidagi shart-sharoitlar masalasining pedagogik jihatlari N. Egamberdieva tomonidan tadqiq etildi [16].

Tarbiya insonni shakllantirish jarayonini boshqarishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir. Tarbiyaning mazmuni, yo'nalishi, maqsadi va vazifasi kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog'liq. Kishi aynan mazkur munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi, tafakkuri orgali olamni anglaydi va o'zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruhida tarbiya topadi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Oilaviy tarbiya an'analarining o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalarining ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarini uzatib, yoshlarning umumiyligi va hissiy rivojlanishnigina ta'minlab qolmasdan, balki, shaxsning mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini ham o'stiradi. Aynan oilada bola o'z ota-onalarining farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbatini, oila oldidagi burch mas'uliyatini, bola tarbiyasidagi tajribalarini o'zlashtiradi. Bunday shart-sharoit kelgusida bolalarning qanday ota yoki ona bo'lishiga zamin hozirlaydi va er yoki xotin sifatida oila oldidagi mas'uliyat hissini shakllantirib boradi Shu sababli oilaviy tarbiya ta'sirchanligi, doimiyligi, barqarorligi, serqirraligi bilan ajralib turadi. Unda hulq odobga doir tadbirlarni yoshlarga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, kattalarning tajribasi, oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onaning kasbhunari, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari katta ahamiyatga egadir.

Tarbiya vositalari: bolalar o'yinlari, choypo'rlik, bolalar gapi, yig'inlari, bolalarning kattalar bilan to'ylar, sayllar, marosimlarda qatnashishi, safarlarga chiqishi [9].

An'anaviy o'zbek oilasida bola yoshlikdan bir-biriga g'amxo'rlik qilishga o'rgatiladi, bu oilada ikkinchi va uchinchi farzand tug'ilishidan boshlanadi. Bola onasi buyurgan ishlarni bajaradi. Katta bola shundan boshlab vaqtini ukasi bilan o'tkazishga o'rganadi, ukasi bilan o'ynaydi, ovqatlanadi. Bolalar ko'payo borgan sari to'ng'ich farzandning ularga g'amxo'rligining doirasi kengayadi, kichiklarga g'amxo'r bo'lib, onasiga yordam beradi. Ota-onal katta farzandidan kichik ukalariga mehr-shafqat, g'amxo'rlik talab etsa, kichiklardan akasi va opasining so'ziga quloq solish, uni hurmat qilish, ularga "aka", "opa" deb, murojaat qilishni talab qiladi. Aksariyat o'zbek oilalarida yoshi kichiklar o'z aka yoki opalarini sizlab murojaat qilishlari ota-onal tomonidan talab qilinadi.

Tadqiqot jarayonida ota-onalarga "Farzand tarbiyasida kim sizga yordam bergen?" – deb savol berildi. Ma'lumotga ko'ra, respondentlarning 45 %ga ota-onasi, 31 %ga qaynota-qaynonasi yordam bergen bo'lsa, 24% i hech kimning yordamiga suyanmagan. Ota-onal javobi Andijonda (50 %), qaynota-qaynonam javobi Farg'onada nisbatan yuqori bo'ldi (35,9 %), o'zi tarbiyalaganlar ko'rsatkichi Namanganda baland (36,4 %). Ayollar va erkaklarning javoblari solishtirilganda bola tarbiyasida ota tomonidan bobo va buvilarning yordami ko'proq bo'lishi aniqlandi. Chunki, 1 javobda erkaklar (64,8 %), 2 chi javobda ayollar nisbati yuqori (38,8 %).

Keksa yoshdagilar ota-onasining yordamiga ko'proq tayangan bo'lsa (53,5 %), yoshlar qaynota-qaynonasi tomonidan ko'p yordam olmoqdalar. Shuningdek, katta avlodlarga nisbatan yoshlar orasida farzandlarini o'zi tarbiyalayotgan-lar ko'rsatkichi past (29,8 % va 17,9 % ga qarshi 8,7 %). O'rta (3–4 farzandli) oilalar ota-onal yordamidan ko'proq foydalanganlar, ko'p bolali oilalar ichida farzandlarini "o'zi tarbiyalagan"lar yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi (28,6 %)[138]. Buning sababi, ko'p bolali oilalarda katta farzandlar kichik bolalarni parvarishlashda ota-onalariga yordam berishadi.

Bola tarbiyasida katta avlodning o'z mas'uliyatini his qilishi nafaqat o'zbeklarga, balki butun O'rta Osiyo xalqlariga xos xususiyatdir. An'anaviy oilalarda qaynonalar faqat bola 2–3 yosh bo'lgandan so'nggina kelinga mustaqil tarzda bola tarbiyasi bilan shug'ullanishga ruxsat berganlar. Agar oilada ikkinchi farzand tug'ilsa, buvilarning roli yanada kuchaygan, shu kundan to'ng'ich bola to'la buvining tarbiyasiga o'tgan. Sababi, ayrim holatlarda bola onasini o'z ukasidan qizg'anishi mumkin[59]. Boshqa tomonidan chaqaloq bilan band bo'lgan ona boshqa bolasining tarbiyasi bilan kerakli darajada shug'ullana olmaydi [17].

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday **xulosa** qilish mumkin; oilaviy tarbiya shaxs shakllanishida asosiy va hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, chunki insonning ruhiyati, dunyoqarashi tarkib topadigan davr – go'daklik oila davrasida kechadi. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyalariga oilada asos solinadi. Oiladagi tarbiya sifati va ko'lami mazkur oilaning tuzilishi, shakli, tipi va undagi a'zolarning tarbiyaviy imkoniyatlariga ya'ni, ko'p bolalik yoki kam bolalik, bir necha avlodlarning birga yashashi, ota-onalarning mavjudligi, bolalarning jinsiy mansubligi, ota-onalarning ma'lumot darajasi, oila a'zolarning ijtimoiy ahvoli va tarbiyadagi mas'uliyatni his qilishlari kabi omillarga bog'liq bo'ladi.


Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamolotida uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir vazifasi bu tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-onal — san'atkor, bola — san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir deb bejis ayishmagan donishmand xalqimiz. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf- odatlari, an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ'ibot-tashviquot ishlarning kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzuqlik yo'liga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi.

Chunki shaxsning ijtimoiylashuvni dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy- g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi.

### Oilaning tarviyaviy vazifasi

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, insonning tasavvur va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi, oila haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili va muhitidir.



Xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Oilada o'zaro kommunikativ munosabatlар оила а'золаринга о'заро муроқот ва о'заро тушунишга бо'лган етийојини қондирishга хизмат qiladi. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, turli ijtimoiy yo'nalganlik, ustanovkalar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi — oiladagi o'zaro, ichki muloqot xarakteri, oiladagi katta a'zolarning muloqotda psixologik ustanovkalarni namoyon qilishlari, oiladagi axloqiy- psixologik iqlimga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Tadqiqot davrida oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning kelgusi hayotlari ko'ngildagidek kechishini ta'minlash, ularning ma'naviy, ruhiy va jismoniy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ustuvor ahamiyatga ega, qadriyatlari xulq-atvor qoidalari, talablarining aniqlanishiga e'tibor qaratildi. Bizning nazarimizda, bu jarayonda quyidagilar o'ziga xos o'r'in tutadi:

1. Atrofdagilar bilan o'zaro muloqot va munosabatlarini tashkil etish shartlaridan xabardor bo'lish.
2. Jamoa joylari hamda ta'lif muassasalarida umumiy axloq me'yorlariga rivoja qilish.
3. Jamiyat (davlat)da amal qilinadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy-axloqiy talablarga og'ishmay amal qilish.
4. Tabiatga (moddiy borliqqa) oqilonona munosabatda bo'lish.

Bu o'rinda dastlab o'quvchilar kishilarning o'zaro salomlashishlari, uning ijtimoiy mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor bo'ldilar.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida oilalarda bolalar qaysi sharoit va vaziyatlarda salom qay tarzda berilishi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ham tanishtirildi. Bu o'rinda Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asarida keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan foydalанилди: "ulug' kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o'tiruvchiga, oz ko'pga salom bergay".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalash masalasi bo'yicha mahallalar, jamoalarni birligida hamkorlikdagi harakatlari yaxshi natijalar berganligini ko'rish mumkin.

### XULOSA

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalash maqsadida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

Buyuk allomalarimizning asarlarida bola tarbiyasi va uni oilada ijtimoiy hayotga tayyorlash zarurating asoslanishi, oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, bu borasidagi xorijiy tajribalar yoritilgan. Buning uchun mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilinib, oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning dolzarb masalalari, yutuq va kamchiliklari, mulohazaviy jihatlari tasnif qilindi.

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda ijtimoiy-maishiy komponentlarining o'zaro birligi va aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashda muhim omillardan-milliy tarbiya usullaridan samarali foydalananishga e'tibor qaratildi.

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik-profilaktik mazmunini muntazam takomillashtirib borishda ularni turli salbiy axborotlar ta'siri, g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalash, o'zaro ishonchni qaror toptirishga yo'naltirilgan "subyekt-subyekt" munosabatlarini yo'nga qo'yish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, individual hulq-atvorlarini hisobga olindi.

Oilada bolalarning milliy qadriyatlar va an'analar asosida o'zaro munosabatlarini tarbiyalashning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirildi: ta'limi muhitni yaratish va mazkur jarayonda pedagoglar, xayriya fondlari nodavlat tashkilotlari ko'magi va ularning ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy tarbiyaning individual, guruhiy, jamoaviy shakllarini uyg'unlashtirish, bolada hayotiy maqsadlarni tarkib toptirish, shaxsiy tanlov asosida noto'liq oila bolalarini bo'sh vaqtini samarali tashkil etishning turli shakllariga jalb etish, hamkorlikda mahalla, maktab munosabatlarini yo'nga qo'yildi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Asqarova O'M. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi. Monografiya.-T.: "Fan" nashriyoti 2010.-121 b.
- Fauntin S. Noyob huquqlar / "Bolalar huquqlari haqidagi Konvensiya"ni o'rganish bo'yicha amaliy qo'llanma. – T.: O'zbekiston Bolalar jamg'armasi, 1996. – 87 b.
- G'oziev E. G. O'zbek xalqi etnopsixologiyasi va bola tarbiyasi // O'zbek oиласининг etnopsixologik xususiyati mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiya materialari. –Toshkent, 1999
- G'oziyev E. Psixologiya. – T.: O'qituvchi, 1994. – 222 b.
- Mahmudova D.Y. Maxsus ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga malakali psixologik xizmat ko'rsatishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fanl. nomz. ... diss. – T.: 2007. – 94-96-b.
- Musurmonova O. Oilada bola tarbiyasining aktual masalalari. – Toshkent, 1998. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent: O'qituvchi, 1999
- O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // Qonun xujjalrima'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020y., 03/20/637/1313-son – T.:
- Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi:Nasaf, 2000. – 79 b.
- Sobirova D.G., Umarbekova Yu.A., Raximova R.I. Vasiylik va homiylik organi faoliyatida ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalari yuzasidan ishlarni yuritish – T.: "TURON-IQBOL" 2015
- Sotsiologiya.(Ma'ruzalar matni. Mas'ul muharrir V. M.Karimova.) – Toshkent, 2000. – B. 208
- Toshbaeva T., Savurov M. Novoe i traditsionnoe v bytu selskoy semi uzbekov. – Tashkent: Fan, 1999. –
- Ubaydullayeva B.M. Tadjieva S., Xusanova X., Komilov F., Tadjixodjaeva O. O'zbekistonda bolalami ijtimoiy himoya qilish tizimida ijtimoiy ish: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2017. – 356 b. Sobirovadan keyinga olish kerak.
- Ubaydullayeva R. A. BURIEVA M Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. – Toshkent: Fan, 2006.–69
- Umarova M. M. O'smirlarda oilaviy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari. Psix. fan. nom...dis. qo'lyozmasi. –Toshkent, 2004. –
- Xos Hojib, Yusuf Qutadg'u bilig. Saodatga yo'llovchi bilim /Transkripsiya va hozirgi o'zbek tiliga tafsif. Nashrga tayyorlovchi: Q.Karimov. – T.: Fan, 1972. –401-785-b.
- Xulnובה Г., Собироева Д., Маджитова Д. Yetim va ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalar uchun muassasalarda ijtimoiy, psixologik-pedagogik ko'maklashish xizmatini tashkil qilish bo'yicha qo'llanma – T.: "Spectrum Media Group" 2015. –220 b.
- Поляков С. П. Традиционализм в современном среднеазиатском обществе. – М., 1989. – С. 43–45 2001